

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, RIVOJLANISH TARIXI, SOHALARI VA TADQIQOT METODLARI

G'afforova Zuhra

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola psixologiya fanining predmeti, rivojlanish tarixi, sohalari va tadqiqot metodlar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Umumiy psixologiya, jon, ruh, psixika, instinkt, xulq-atvor, metod, soha, taraqqiyot.*

Darhaqiqat, bugungi kunda psixologiya fani rivojlanib bormoqda. Xo'sh, psixologiya nima? Psixologiya-inson va hayvonlar faoliyati xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fandır. Asosan, psixologiyani tadqiqot predmetriga quyidagilar kiradi: sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala, hayol kabi psixologik jarayonlar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari-psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini o'rganadi. O'tgan asrlardan vboshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Asta-sekinlik bilan Aristotel "Jon to'g'risida"gi asarida psixologik tushunchalarni ishlab chiqdi. Psixologiya XIX asrning 2-yarimiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Keyinchalik psixologiya fani bosqichma-bosqich shakllanib, bir nechta sohalardan tashkil topgan. Haqiqatdan ham, hozirgi davrga kelib, psixologiyaning ko'plab sohalari mavjud. Bulartga: umumiy psixologiya, harbiy psixologiya, mehnat psixologiya, pedagogik psixologiya, sport psixologiyasi va ijodiyot psixologiyalari kiradi. Bu sohalar bir-biridan turlicha muomala va xarakteri orqali farq qiladi. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saqlash va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Shunday ekan, biz psixologiya fanini har tomonlama rivojlantirib borishimiz zarur.

Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, oramizda shunday insonlar borki, ular psixologiya fani inson hayoti uchun zarur deb hisoblashadi. Bu rost gap. Chunki biz psixologiya fani orqali inson psixikasini o'rganib olamiz. Psixologiya-ko'pchilik insonlarda ijobiy, ayrimlarida esa salbiy ko'rinishga ega. Lekin ba'zilar esa ijobiy psixologiyani yaxshi deb o'ylashadi. Negaki biz insonlarning shaxsiy va ijtimoiy farovonliklarini yaxshilashni ijobiy psixologiya orqali amalga oshiramiz. Bundan tashqari, insonlarga va hayvonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni bilib olamiz. Masalan, kishilarning tafakkuri, idrok qilishlari va ularning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyatlari insonning xulq atvorida namoyon bo'ladi. Psixika-insonlarda turlicha ko'rinishda aks etadi. Kingadir ijobiy yoki kingadir salbiy. Misol qilib pedagoglarni muomala jarayonini olaylik. O'qituvchilarning dars jarayonida o'quvchilarga bo'lgan muomalasi yaxshi bo'lsa, ya'ni ularga baqirmasa, o'quvchilarga nisbatan turli xildagi haqoratli so'zlar bilan so'kmasdan, balki ularni erkab, o'z farzandidek qabul qilib bilim bersa, o'sha pedagoglarda muomala jarayoni yaxshi shakllangan bo'ladi. Psixologiya fanining boshqa fan sohalaridan farqli tomoni shundan

iboratki, uning amaliy, tadbiqiy jihatlari mavjud bo'lib, ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita qatnashadi, muayyan darajada ta'sir o'tkazadi.

Psixologiya boshqa fanlardan farqli o'laroq o'z tadbiqiy ma'lumotlari natijalarining ko'pqirra, ko'pyoqlama ekanligi bilan tubdan ajralib turadi va mutlaqo boshqa sifat ko'rsatkichiga ega. Ayniqsa, bu borada o'zini-o'zi boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun u tabiatni o'rganish ilmida tafovutlanib, o'zining psixik jarayonlari, funksiyalari, holatlari, hissiyoti, irodasi, xarakteri, temperamenti kabilarni boshqarishda o'z aksini topadi. Inson o'zini anglay borib, o'z insoniy xislati, xususiyati, sifati, xulqini o'zgartirish imkoniyati ega bo'ladi. Psixologiya fani ko'hna tarixga ega bo'lishiga qaramay, u juda navqiron fandir. Chunki ilmiy psixologiya nemis psixologi V.Vundt tomonidan 1879-yilda Leybsig (Germaniya) universitetida asos solingan birinchi eksperimental laboratoriya ochilishidan boshlanadi. Shu sababli, refleksiyaning ilmiy jihatdan o'rganishni psixologiya fani predmeti tarkibiga kiritish davri keldi. Psixologiya fani to'g'risida ko'plab olimlarimiz fikr yuritishgan. Jumladan, Arastuning "Jon to'g'risida"gi kitobi ma'lum davr uchun taraqqiyparvar manba vazifasini bajaradi. Unda odamlarning va hayvonlarning kundalik hayotiy lahzalarini kuzatish orqali yaqqol voqelikni tasvirlash, tahlil qilish jarayonlari mujassamdir. Arstuning ta'kidlashicha, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda ro'yobga chiqadi. Uning mulohazashicha, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati, u tasavvur shaklida iz qoldirishi mumkin.

Qadimgi dunyoning keyingi rivojlanishi pallalarida psixologik g'oyalar mukammalashib, unga oid tayanch tushunchalar vujudga kela boshladi, hatto, ruh hozirgi zamon psixikasi kabi qo'llanish ko'lami kengaydi. Psixika kategoriyasi negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, Rumolik shifokor Galen eramizd oldingi II asrda fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari "Ong" tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi. Shundan keyin inson psixikasi shakllana boshlandi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, psixologiya fani insonlar uchun zarur bo'lgan fandir. Chunki psixologik bilim va malakalar insonlarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida, oilaviy hayotida asqotadi. Eng muhimi, psixologik bilimlar insonlarga o'zlarini anglashda, o'z ustilarida mustaqil ishlashga, barkamol shaxs bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. V.Karimova "Psixologiya" Toshkent 2000
2. G`oziyev E. Umumiy psixologiya, 1-kitob , Toshkent 2004
3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI

SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

4. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.

5. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVURLARNING SHAKLLANISHI "Журнал Педагогики и психологии в современном образовании",3(1).

6. Ashurova Sh.F. (2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)

7. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

8. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

9. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.

10. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.

11. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.

12. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. *Finland academic research science publisher*, 1148-1151.

13. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(3), 156-161.

14. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.

15. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции*

психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

16. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.

17. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.

18. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(22), 120-123.

19. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. *Journal of Discoveries in Applied and Natural Science*, 1(1), 62-67.

20. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1158-1162.

21. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(10), 101-104.

22. Ньматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. *Студенческий вестник*, (5-1), 62-63.

23. Ньматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. *Студенческий вестник*, (5-1), 62-63.

24. XUDOYQULOVA, S., & SAYDALIYEVA, M. (2023). The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child. *Eurasian Scientific Herald*, 21, 54-58.

25. Sh, K. (2022). PSYCHOLOGICAL METHOD OF DEVELOPING CHILDREN'S BEHAVIOR AND EMOTION. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 107-112.